

TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT


ANDIJON VILOYATIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2020-yil yanvar-mart *)

Hozirgi kunda dunyoning deyarli barcha davlatlariga tarqalgan koronavirus (COVID-2019) pandemiyasi xalqaro integratsiyasining kamayishiga hamda davlat chegaralarning yopilishiga sabab bo'ldi. Bu esa viloyatning tashqi savdo sohasi va aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Ushbu yo'nalishda olib borilayotgan islohotlar borasida, 2020-yil yanvar-mart oylari hisobot davrida viloyatning tashqi savdo aylanmasi 663,3 mln. dollarni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,0 % ga o'sdi. Shu jumladan, eksport 125,0 mln. AQSh dollar (o'sish sur'ati - 119,3 %), import esa 538,3 mln. AQSh dollarini tashkil qildi (o'sish sur'ati - 101,0 %). Tashqi savdo balansi 413,3 mln. AQSh dollari miqdoridagi passiv qoldiq qayd etildi.


Andijon viloyatining tashqi savdo aylanmasi (2020-yil yanvar-mart, mln. AQSh dollari*)



2020-yil yanvar-mart oylari yakunida respublikaning tashqi savdo aylanmasi 8 140,4 mln. AQSh. doll., eksport 3 374,7 mln. AQSh. doll., import esa 4 765,7 mln. AQSh. doll.ni tashkil etgan. Viloyatining respublika tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 8,1 %, eksportda 3,7 %, importda esa 11,3 % ni tashkil qildi.



**Dastlabki ma'lumotlar asosida*





**Respublika va Andijon viloyatining tashqi savdo aylanmasi
(2020-yil yanvar-mart, mln. AQSh dollari)**



Viloyatimiz dunyoning 59 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshiradi. Dunyo mamlakatlari orasida uning tashqi savdo aylanmasi (TSA) ning eng katta hajmi Koreya Respublikasi (54,3 %), Xitoy Xalq Respublikasi (10,2 %), Rossiya Federatsiyasi (8,5 %), Qirg'iz Respublikasi (7,5 %), Tailand (3,6 %), Turkiya (2,8 %), Qozog'iston (5,3 %) Braziliya (0,7 %) va boshqa davlatlar (7,3 %).

**Viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar
(2020-yil yanvar-mart, mln. AQSh dollari)**






2020-yil yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra viloyatning tashqi savdo aylanmasida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan tashqi savdoda eksport ulushi 22,9 foiz darajaga o'sdi.

2020-yil yanvar-mart oylari natijalariga ko'ra MDH mamlakatlari bilan savdo hajmi 152,1 mln. AQSh dollarini tashkil qildi va O'zbekiston tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 1,8 foizni tashkil etdi.

**2020-yil yanvar-mart oylarida viloyatning
MDH va boshqa davlatlarning tashqi savdo
aylanmasida ulushi, foizda**



Viloyatning qo'shni davlatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarning mustahkamlanishi o'zaro savdo-sotiqqa ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. MDH mamlakatlari bilan tashqi savdoning qariyb 22,1 foizi qo'shni davlatlar tomonidan amalga oshiriladi, shundan eksportning 77,9 foizi va importning 9,2 foizi qo'shni davlatlar hissasiga to'g'ri keladi.

Hisobot davrida viloyatning tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlari orasida Rossiya, Qirg'iz, Qozog'iziston va Azarbayjon davlatlari, tashqi savdo aylanmasida asosiy hamkorlar hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 14,5 foizni tashkil qiladi, boshqa davlatlar orasida Janubiy Koreya, Xitoy, Tailand, Turkiya, Braziliya, Germaniya, AQSh va Chexiya davlatlari hisoblanadi, ularning ulushi 85,5 foizni tashkil qiladi.

**Viloyat tashqi savdo aylanmasida nisbatan
katta ulushga ega bo'lgan davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi**

	Davlatlar	Tashqi savdo aylanmasi, mln AQSh dollari	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda	Tashqi savdo aylanmasi ulushi, foizda
	Janubiy Koreya	360,5	96,5	54,3
	Xitoy	68,0	93,4	10,2
	Rossiya	56,4	103,5	8,5
	Qirg'iz	49,5	132,0	7,5
	Qozog'iston	35,4	170,3	5,3
	Tailand	23,8	12,7 m.	3,6
	Turkiya	18,6	243,4	2,8
	Braziliya	4,5	122,2	0,7
	Germaniya	4,2	157,6	0,6
	Azarbayjon	5,0	26,5 m.	0,8
	AQSh	4,0	25,9	0,6
	Chexiya	3,4	79,5	0,5

Viloyat tashqi savdo aylanmasining qit'alar bo'yicha taqsimlanishi


Qit'alar nomi	2020-yil yanvar-mart (mln. AQSh dollari)		Tashqi savdo aylanmasi	
	Eksport	Import	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda	Jamiga nisbatan, foizda
Jami:	125,0	538,3	104,0	100,0
Yevropa	21,5	82,7	109,9	15,7
Osiyo	103,3	445,3	105,2	82,7
Amerika	0,1	10,3	49,7	1,6
Afrika	0,0	0,04	12,4	0,0

2020-yil yanvar-mart oylarida chet el sarmoyasi ishtirokidagi korxonalarning asosiy ko'rsatkichlari

Shahar va tumanlar nomi	Ro'yxatga olingan (birlik)	Faoliyat ko'rsatayot- gan (birlik)	Faoliyat ko'rsatmayot- gan (birlik)	Tashqi savdo aylanmasi (ming AQSh doll.)	Eksport (ming AQSh doll.)	Import (ming AQSh doll.)
Viloyat bo'yicha:	334	318	16	70 520,5	20 954,7	49 565,8
Andijon sh.	129	127	2	45 618,7	7 864,4	37 754,3
Shahrixon	27	25	2	439,4	83,9	355,5
Andijon	28	25	3	1 103,4	516,5	586,9
Asaka	18	18	-	1 172,1	226,3	945,8
Oltinko'l	19	18	1	5 177,8	4398,9	778,8
Qo'rg'ontepa	10	8	2	7,0	-	7,0
Baliqchi	9	8	1	-	-	-
Marhamat	14	13	1	1 133,0	779,6	353,4
Izboskan	9	8	1	2 177,1	2177,1	-
Buloqboshi	12	11	1	210,5	-	210,5
Xonobod sh.	15	15	-	11 362,3	3 999,8	7 362,4
Jalaquduq	10	8	2	169,6	-	169,6
Paxtaobod	7	7	-	-	-	-
Xo'jaobod	14	14	-	651,1	589,5	61,7
Ulug'nor	5	5	-	979,8	-	979,8
Bo'ston	8	8	-	318,7	318,7	-

Viloyatda chet el sarmoyasi ishtirokida jami 334 ta korxonalar mavjud bo'lib, shundan, joriy yilning shu davriga kelib 318 ta korxona faoliyat ko'rsatib kelmoqda, qolgan 16 ta korxona vaqtincha faoliyatini to'xtatgan. Chet el sarmoyasi ishtirokidagi korxonalarning tashqi savdo aylanmasi jami 70,5 mln. AQSh dollar, viloyat tashqi savdosidagi ulushi 10,6 % ni tashkil qildi. Eksport 20,9 mln. AQSh dollar, import 49,6 mln. AQSh dollarga teng bo'ldi.

**Tovar va xizmatlarning eksport tarkibi,
jamiga nisbatan ulushi foizda
(2020-yil yanvar-mart)**



2020-yil yanvar-mart oylarida viloyat eksportining hajmi 125,0 mln. AQSh dollari tashkil etdi (o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 119,3 %). Eksport qilinadigan mahsulotlar ulushi 99,2 % ni tashkil etdi, shundan tekstil va trikotaj mahsulotlari - 43,9 %, mashina va uskunalar 32,1 %, oziq-ovqat mahsulotlari - 3,4 %, qora va rangli metallar - 1,7 %, kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan mahsulotlar - 0,5 %.

**MDH va boshqa xorijiy davlatlarning
eksport tarkibi
(2020-yil yanvar-mart)**

Eksport tarkibi	Jami			MDH			Boshqa davlatlar		
	Ming AQSh doll.	O'tgan yilga nisbatan oshish sur'ati, foizda	Jamiga nisbatan ulushi, foizda	Ming AQSh doll.	O'tgan yilga nisbatan oshish sur'ati, foizda	Jamiga nisbatan ulushi, foizda	Ming AQSh doll.	O'tgan yilga nisbatan oshish sur'ati, foizda	Jamiga nisbatan ulushi, foizda
JAMI:	124 984,4	119,3	100,0	101 953,5	159,3	100,0	23 030,9	56,5	100,0
Paxta tolasi	30,9	0,0	0,02	-	-	-	30,9	0,0	0,02
Oziq-ovqat mahsulotlari	4 254,5	31,3	3,4	4 166,2	41,2	4,1	88,3	2,5	0,4
Kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan mahsulotlar	643,8	65,6	0,5	547,1	59,4	0,5	96,7	161,4	0,4
Qora va rangli metallar	2 055,6	469,3	1,7	2 055,4	469,8	2,0	0,2	37,4	0,0
Mashina va uskunalar	40 143,9	228,9	32,1	39 725,6	257,7	39,0	418,3	19,7	1,8
Tekstil va trikotaj mahsulotlari	54 831,2	91,7	43,9	32 863,4	131,7	32,2	21 967,8	63,0	95,4
Xizmatlar	1 028,5	154,0	0,8	828,0	144,4	0,8	200,5	212,4	0,9
Boshqalar	21 995,6	188,6	17,6	21 767,3	188,2	21,4	228,3	232,9	1,0

**Eksport tuzilmasi dinamikasi
(2020-yil yanvar-mart, ulushi %)**

Eksport tarkibi	2018-y.	2019- y.	2020- y.
JAMI:	100,0	100,0	100,0
Paxta tolasi	-	-	0,02
Oziq-ovqat mahsulotlari	8,4	13,0	3,4
Kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan mahsulotlar	0,7	0,9	0,5
Qora va rangli metallar	0,3	0,4	1,6
Mashina va uskunalar	46,6	16,7	32,1
Tekstil va trikotaj mahsulotlari	40,3	57,1	43,9
Xizmatlar	1,8	0,6	0,8
Boshqalar	1,9	11,1	17,6


So‘nggi uch yil ichida eksport tarkibini diversifikatsiyalash dinamikasi kuzatilmoqda. Shuningdek, tekstil va trikotaj mahsulotlari ulushi 43,9 foiz darajaga o‘tdi va 3,6 %, qora metallar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar - 1,3 % va boshqalar - 17,6 % ni tashkil etdi. Qolgan pozitsiyalar eksport tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari, mashina va uskunalar ulushining sezilarli darajada o‘sishi hisobiga pasayganligini ko‘rsatmoqda.

Tekstil va trikotaj mahsulotlari eksporti dinamikasi
(yanvar-mart, ming AQSh doll.)

Mahsulotlar nomi	2019-y.	2020-y.
Kalava ip va gazlamalar	36 357,8	21 818,9
Trikotaj kiyimlar	16 996,1	24 368,6
Trikotaj matolar	452,8	3236,0
Tikuvchilik mahsulotlari	695,1	1362,5
Boshqa turli tekstil mahsulotlari	343,3	736,3
Maxsus gazlamalar	39,2	35,7
Ipak va gazlamalar	3 146,0	2 894,0
Gilamlar	0,9	0,0
Paxta, kiygiz va noto‘qima matolar	1 789,4	301,3

2020-yil yanvar-mart oylarida tekstil va trikotaj mahsulotlarini eksport hajmi 54,8 mln. AQSh. dollarni tashkil etdi va 2019-yilning shu davriga nisbatan 91,7 foiz, bu umumiy eksportning 43,9 foiziga yetdi. Tekstil va trikotaj mahsulotlari eksportining asosiy qismi trikotaj kiyimlar (44,4 %), shuningdek, kalava ip va gazlamalar (39,8 %) hisoblanadi.

**Tovar va xizmatlarning import tarkibi,
jamiga nisbatan ulushi, foizda
(2020-yil yanvar-mart)**



2020-yil yanvar-mart oylarida viloyatning import hajmi 538,3 million dollarni tashkil etdi (o'sish sur'ati - 101,0 foiz). Uning tarkibida asosiy ulushni mashina va uskunarlar, shu jumladan extiyot qismlar va butlovchi qismlar (70,0 %), kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan mahsulotlar (10,5 %), qora va rangli metallar (8,3 %), xizmatlar (5,7 %), oziq-ovqat mahsulotlari (0,6 %), energiya manbalari va neft mahsulotlari (0,3 %) shuningdek boshqalar (4,6 %) egallaydi.

MDH va boshqa xorijiy davlatlarning import tarkibi (2020-yil yanvar-mart)

Import tarkibi	Jami			MDH			Boshqa davlatlar		
	Ming AQSh doll.	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, foizda	Jamiga nisbatan ulushi, foizda	Ming AQSh doll.	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, foizda	Jamiga nisbatan ulushi, foizda	Ming AQSh doll.	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, foizda	Jamiga nisbatan ulushi, foizda
JAMI:	538 317,9	101,0	100,0	50 151,5	95,7	100,0	488 166,4	101,6	100,0
Kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan mahsulotlar	56 393,1	82,4	10,5	3 882,9	85,0	7,7	52 510,1	82,2	10,8
Qora va rangli metallar	44 520,4	90,6	8,3	29 517,9	97,2	58,9	15 002,5	79,8	3,1
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	1 765,6	65,1	0,3	1 236,1	55,6	2,5	529,4	108,5	0,1
Mashina va uskunalar	376 946,7	110,0	70,0	10 534,7	154,3	21,0	366 412,0	109,1	75,1
Oziq-ovqat mahsulotlari	3 144,1	127,1	0,6	1 611,3	127,6	3,2	1 532,9	126,5	0,3
Xizmatlar	30 490,7	71,5	5,7	181,9	12,7	0,4	30 308,7	73,6	6,2
Boshqalar	25 057,3	101,0	4,7	3 186,6	55,6	6,4	21 870,7	114,7	4,5

Import tuzilmasi dinamikasi (2020-yil yanvar-mart, ulushi % da)

Import tarkibi	2018-y.	2019-y.	2020-y.
JAMI:	100,0	100,0	100,0
Kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan mahsulotlar	8,9	12,9	10,5
Qora va rangli metallar	6,9	9,2	8,3
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	0,7	0,5	0,3
Mashina va uskunalar	67,3	64,3	70,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	5,4	0,5	0,6
Xizmatlar	6,0	8,0	5,7
Boshqalar	4,9	4,6	4,6

Mashina va uskunarlar dinamikasi
(yanvar-mart, ming AQSh doll.)

Tarkib	2019-y.	2020-y.
Transport vositalari va butlovchi qismlar	237 404,9	265 374,2
Mexanik asbob uskunarlar	60 173,8	67 425,3
Elektr mashinalar va asbob uskunarlar	22 842,7	22 362,8
Boshqalar	22 212,4	21 784,4

2020-yil yanvar-mart oylarida mashina va uskunarlar importi 376,9 mln. AQSh doll. ga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10,0 % ga o'sgan. Viloyatning jami importidagi ulushi 70,0 %, Uning tarkibida asosiy ulushni transport vositalari va butlovchi qismlar (70,4 %), mexanik asbob uskunarlar, ularning qismlari (17,9 %), shuningdek, elektr dastgohlar va jihozlar, ularning qismlari (5,9 %) hamda boshqalar (5,8 %) ni egallaydi.

Viloyat eksportining asosini tekstil va trikotaj mahsulotlari, mashina va uskunarlar tashkil etgan. Joriy yilning yanvar-mart oylarida 318 ta eksport qiluvchi korxonalar mavjud bo'lib, ular tomonidan 35 ta uzoq va yaqin mamlakatlarga eksport amalga oshirilgan.

**Andijon viloyati statistika
boshqarmasi Tashqi iqtisodiy
faoliyat va savdo statistikasi bo'limi**

(74) 228-30-57